

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva	
No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar	835
Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova	
Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi	838
M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova	
Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari.....	841
S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov	
Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition	847
M.T.Abdullayeva, M.Nazarov	
Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati	850
M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova	
Soil pollution by waste and measures to it prevent	854
D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova	
Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari	857
D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova	
Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi	862
Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova	
O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar	868

ILMIY AXBOROT

Z.V.Alimova, M.A.Usmanova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar va forsiy izofa haqida	871
X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova	
Isajon Sultonning "Ozod" romanida intertekstuallik	876
M.A.Jo'rayeva	
Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni.....	880
A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova	
Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi	884
I.I.Rustamova, D.A.Abdurahobova	
Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari	887
A.G.Sabirdinov	
Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida	890
A.A.Qayumov	
Hastalangan ruhiyat tasviri	894
R.M.Umurzakov	
Avtobiografik qissalarda bola obrazi	899
Q.V.Yo'lchiyev, A.Charos	
Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida ironiyaning o'rni	903
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq leksemalar xususida	907
G.A.Ikromova	
Dramalar tilida antroponimlarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida).....	913
I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva	
Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar	918
N.A.Abdualiyeva	
Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi	922
A.R.Dadajonov	
Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi.....	927
D.R.Teshaboyev	
Havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qarishlilik	930
I.T.Axmadjonov, A.R.Dadajonov	
Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari	936



UO‘K: 821.512.133.(043.3)

HASTALANGAN RUHIYAT TASVIRI**ИЗОБРАЖЕНИЕ БОЛЬНОЙ ПСИХИКИ****DESCRIPTION OF A DISEASED PSYCHE****Qayumov Abduvahob Abdurashidovich** 

Farg‘ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Annotatsiya

Mazkur maqolada jahon adabiyotshunosligida qo‘llanilib kelayotgan “yo‘qotilgan avlod” atamasining mazmun mohiyati hamda o‘zbek adabiyotida mazkur atama talablariga mos keladigan qahramonlar galareyasini o‘rganish maqsad qilingan. Muammoning nazariy asoslari o‘rganilgan hamda tadqiqotlarda masalaga oid olib borilgan izlanishlar keng o‘rganilgan. O‘rganish maqsad qilingan hikoyalar tarixiy-madaniy va biografik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Yo‘qotilgan avlod tushunchasi aynan urushlar bilan bog‘liqligi tarixiy tahlil metodini talab qilsa, yozuvchilarning urushlarda ishtirok etganligi asarga biograik nuqtai nazardan ham yondashishni talab qiladi. Hikoyalar tahlili natijasida asarlar qahramonlarining psixologik muammolari, urush ta‘sirida paydo bo‘lgan ruhiy zo‘riqishlar, yozuvchining qahramon yaratish mahorati kabi masalalar bo‘yicha xulosalar olindi. Yozuvchi va shoir Nabi Jaloliddin yaratgan qahramonlar hayotiy va psixologik murakkabligi bilan ajralib turadi. Asarda qo‘llangan har bir epizod, har bir detal qahramon ruhiy holatini ochib berish uchun xizmat qilgan. Urush tufayli sodir bo‘lgan yosh yigitlardagi – badiiy qahramonlar ruhiyatidagi evrilishlar yordamida urushning fojiali tomonlari ochib berilgan. Zamon, makon va ruhiyat mutanosibligida yaratilgan bu hikoyalar kitobxonlar va adabiyotshunoslar uchun tarbiya, san‘at asari materiali bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация

В данной статье рассматривается сущность и значение термина «потерянное поколение», используемого в мировой литературе, а также анализируются персонажи узбекской литературы, соответствующие критериям этого термина. Изучены теоретические основы проблемы и проведен широкий обзор исследований, связанных с этой темой. Для изучения выбранных рассказов использовались методы историко-культурного и биографического анализа. Понятие «потерянное поколение» непосредственно связано с войнами, что требует исторического анализа, а участие писателей в войнах требует биографического подхода к их произведениям. Анализ рассказов привел к выводам о психологических проблемах персонажей, психическом напряжении, вызванном войной, и мастерстве автора в создании персонажей. Персонажи, созданные писателем и поэтом Наби Джалолиддином, выделяются своей жизненностью и психологической сложностью. Каждый эпизод и каждая деталь в произведениях служат для раскрытия психологического состояния персонажей. Трагические аспекты войны раскрываются через изменения в менталитете молодых людей – литературных героев – вызванные войной. Эти рассказы, созданные в гармонии времени, пространства и психики, служат образовательным и художественным материалом для читателей и литературоведов.

Abstract

This article aims to explore the essence and significance of the term "Lost Generation" as used in world literature, and to examine characters in Uzbek literature that align with the criteria of this term. The theoretical foundations of the issue have been studied, and research related to the topic has been extensively reviewed. Historical-cultural and biographical analysis methods have been used to study the selected stories. The concept of the Lost Generation is specifically linked to wars, which requires historical analysis, while the participation of writers in wars necessitates a biographical approach to the works. The analysis of the stories resulted in conclusions regarding the psychological problems of the characters, mental stress caused by the war, and the author's skill in creating characters. The characters created by writer and poet Nabi Jaloliddin stand out for their vitality and psychological complexity. Each episode and detail used in the works serves to reveal the psychological state of the characters. The tragic aspects of war are unveiled through the transformations in the mentality of young men – the literary characters – caused by the war. These stories, created with the harmony of time, space, and psyche, serve as educational and artistic materials for readers and literary scholars.

Kalit so‘zlar: yo‘qotilgan avlod, zamon, makon, ruhiyat, hikoya, badiiy g‘oya, mavzu, sujet, milliylik, insoniylik, kulminatsiya, peyzaj, detal, poetika, fojea

Ключевые слова: потерянное поколение, время, пространство, психика, рассказ, художественная идея, тема, сюжет, национальность, человечество, кульминация, пейзаж, деталь, поэтика, трагедия

Key words: lost generation, time, space, psyche, artistic idea, theme, plot, nationality, humanity, climax, landscape, detail, poetics, tragedy

KIRISH

“Yo‘qotilgan avlod” tushunc hasining vujudga kelishi Yevropada Birinchi Jahon urushiga bog‘liq [1]. Har bir urush yo‘qotilgan avlodni yaratib ketadi. Ular tinch zamonda ham boshqa odamlarga o‘xshab yasholmaydilar, ularning ongida, xatti-harakatlarida urushning dahshatli fojealari saqlanib qoladi. Nabi Jaloliddinning “Urush”, “Urushning davomi”, “Ayriliq” hikoyalari ham urush o‘chog‘iga borib qaytgan, urush tufayli hayotda o‘z o‘rnini topa ololmayotgan, tashqi dunyodan uzilgan odamlar haqida. “Urushda g‘olib va baxtli podshoh, g‘olib va baxtli qo‘shin bo‘lmaydi, g‘olib va baxtli davlat, g‘olib va baxtli tuzum bo‘lishi mumkin. Ammo g‘olib va baxtli odam bo‘lmaydi. Negaki, urush odamni o‘ldirishga majbur qiladi. Odam o‘ldirgan odam esa hech qachon baxtli bo‘lmaydi” [2.438]. Hikoyalar qahramonlari ham urush sabab psixologik bosimlar qurshovida qolgan insonlardir. Urushdan qolgan jirkanch xotiralar, urushda o‘lgan do‘stlar sog‘inchi, tinchlik hayotdagi yomon odamlar, yomon munosabatlar ruhiy tarangliklar va fiziologik buzilishlarga olib keladi. Nabi Jaloliddin asarlarida ana shunday yo‘qotilgan avlod, yo‘qotilgan halovat haqida baxs yuritadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Adabiyotda urush mavzusida bir qator izlanishlar olib borilgan. E.Murtazaev, S.Saparbaeva, F.Holbekova, N.Abdurasulova, I.Asatjanova[3] kabi tadqiqotchilarning disstertatsiya va maqolalarida, yo‘qotilgan avlod bo‘yicha Sh.Chorieva, Ya.Nishanov, O.Xolmatov[4] kabi izlanuvchilarning tadqiqotlari mavjud bo‘lib, ularda masalaning turli qirralari o‘rganilgan. Shuningdek, urush mavzusida yozilgan asarlarda tasvirlangan yo‘qotilgan avlob vakillarining hayotlaridagi qiyinchiliklar tasviridagi yozuvchining mahorati ochib berilgan.

Maqolada hikoyalar tahlilida tarixiy-madaniy va sotsiologik metodlardan foydalanilgan bo‘lib, asardagi tasvirlarning milliy madaniy o‘ziga xosliklari hamda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ahamiyati masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Urush ko‘rgan kishilar o‘lgan do‘stlari, o‘ldirgan insonlari uchun ruhan qiynaladi, ular jamiyatga qo‘shilolmaydilar, yo‘lgizlikni afzal ko‘radilar:

“Oshxona shiyponiga yelka suyaklari turtib chiqqan, bo‘ydor, qora to‘ri yigit kelib keldi. U yarim kosa lag‘mon olib, nigohi bilan bo‘sh joyni qidirtdi. Eng chekkadagi joylardan biri bo‘sh ekanligini ko‘rib, o‘zicha xursand ham bo‘ldi-hartugul to‘polondan chetroq...”[5.102]

“Urushning davomi” hikoyasidan olingan ushbu parchada urushga borib kelgan yigitning odamlardan chetroqda bo‘lgan joyning izlashi va bunday joyning topilishidan xursand bo‘lganini sezamiz. Ushbu holat yigitning xarakteriga xos bo‘lgan og‘ir-bosiqlik, odamlardan o‘zini olib qochish kabi xislatlarni ifodalab bergan. Oshxonaga ovqatlanish uchun kelgan yigitning ovqatlanmasligi esa, nimadandir siqilganligidan darak beradi. Yozuvchi obrazlarni shunchaki ta‘riflab ketmaydi, balki uning xatti-harakatlari bilan vaziyatni baholaydi, qahramonlar xarakterini ochib beradi. Yigitning ichki kechinmalari chol bilan bo‘lgan suhbatda ayon bo‘ladi. Chol ham yigitga o‘xshab, to‘polondan yiroq bo‘lgan joyni izlaydi va yigitning oldiga o‘tiradi. Cholning bir tomonga oqsoqlanib yurishi, qo‘lining uchta barmog‘i yo‘qligi urush qoldirgan asorati bo‘lsa, uning shu yoshga kirib, sochiga oq tushganda, vino ichishi esa, urush xotiralari, uning fojealarini uning ongida saqlanib qolganidandir. Odatda ichgan odam hamma narsani unutadi, hayotning tashvishlarini, qiyinchiliklaridan xalos bo‘ladi. Ammo hikoyada buning aksi bo‘lgan, ichish ular uchun xotiralardan qutulish emas, aksincha, o‘tmishni eslash, ularni qiynayotgan dardlarni his qilishdir. Hikoyada chol va yigitning, “urush ko‘rgan” larning iztiroblari, urushning asoratlari haqida aytiladi. Bu iztiroblarni ularning ko‘zlarida aks etgandi, ularning ko‘zlari so‘zlardi, faqatgina ko‘zlari ularni tushunardi.

“Chol shishaning qopqog‘ini ochib, ikkita piyolaga quydi. Yana yigitga qaradi. Ko‘zlar to‘nashdi. Ularning ko‘zlari bir-birlarinikiga juda o‘xshardi-ikkisining ham qorachiqlarida mislsiz g‘am

cho'kib yotgandek, ularga qaragan kishi ham o'zini o'sha ko'zlarga kirib ketayotgandek his qiladi. Bu nigohlarda yana qandaydir ma'nolar ham yashiringandek"[5.104].

Badiiy adabiyotda ko'z bu ko'ngil ramzi hisoblanadi. Ko'ngildagi ichki kechinmalar insonlarning ko'zida aks etadi. Insonlarning quvongani yoki xafa bo'lgani alomati ularning ko'zlarida bilinadi. Yozuvchi hikoya qahramonlarini tashvishlarini, yurak tug'yonlarini ularning ko'zlariga yashiradi. O'xshash ko'zlarning o'xshash g'amlari bor edi.

"Ichishni urushda o'rganganman, – dedi chol og'zidagini yamlarkan. –Qaytib kelsam buvim ham o'tib ketganakan. Otam prontda o'lgan. Shu-shu ichaverdim..."[5.105].

Urush bu minglab kishilarga ichishni, chekishni o'rgatgan joy. Lekin urush paytida odamlar qo'rquvni yengish uchun, halovat topish uchun bu "xulq"larni egallashgan. Chol ham shular qatoriga kiradi. Onasini so'nggi manzilga kuzatolmagan chol alamini ichimlikdan oladi. Uning ko'nglida hamon urushga, odamlarga nisbatan nafrat bor.

"–Endi yosh bir joyga yetib bordi, u dunyoni o'ylash kerak, – chol shoshilmay, dona-dona qilib, o'ktam gapirardi. –Namozniyam o'qish kerak... Machitga-ku chiqaman...– U ko'plarga o'xshab o'zini oqlamasdi, shunchaki gapirardi, xolos. Ammo ba'zan odamlarni yomon ko'rib ketaman. Shunaqa mahallari bugungiga o'xshab shaharga tushaman-da, bir shishani urvolaman. Ko'nglim hiyla yumshaydi. Bu savilni ichgani qishloqda bo'lmaydi. O'g'il-qizlar bor. Ham desang namozxon birodarlar bor... Qani!..."[5.105]

Chol namoz o'qishi, masjidga borishini o'zining burchi, vazifasi deb biladi. Shuning uchun gapirganda o'zini oqlamasdan gapiradi. Uning yuragida qahr bilan mehr birga yashaydi. U insonlarni yomon ko'rib ketganida yolg'izlikni qo'msaydi. U insonlarga gapirib ozor berishdan ko'ra, "savi"ni ichishni afzal ko'radi. Inson yoshi ulug'lashgani sari nasihatgo'y, duogo'y bo'la boshlaydi. Ammo ushbu hikoyada chol birovga nasihat qilishni istamasdi, gaplarini nasihat tusini olmasligiga harakat qiladi. Chunki uning o'zi ham o'zini gunohkor deb hisoblar, birovga nasihat qilishdan ko'ra, uni tushunishga harakat qilardi. Buni o'g'lining ichib kelganini ko'rib indamaganidan bilishimiz mumkin. Uning o'g'li mast bo'lib kelsa ham otasiga bildirmaslikka harakat qiladi. Chunki otasi bilib qolsa, siqilishini, yana-da azob chekishini biladi. Og'li odatdagidek, so'rida o'tirgan otasidan holahvol so'raydi. Odatda, badiiy adabiyotlarda ichkilik odamni vahshiyga aylantirishi va ichkilik ichgan odam insoniylikka zid bo'lgan xatti-harakatlar qilishi bilan salbiy obrazni shakllantiriladi. Nabi Jaloliddin asarlarida esa, obrazlar har qanday holatda insoniyligini, milliyligini yo'qotmagan. Yozuvchi ichkilik yordamida odamlar hayoti va urushning asoratlarini ochib beradi.

Chol yigitning ko'ziga qarab yuragida dardi borligini sezadi. Yigitning barcha g'amlari uning ko'zlariga shu qadar botib ketgan ediki, ularga insoniyat yuragi tik boqishga bardosh berolmasdi.

"Ikki oy burun buvim(onam)dan ayrildim...! – Yigit juda sekin ammo sokin ovozda gapirardi. – Onam Afg'onligimda davlenasi chiqadigan bo'p qolgan ekan. Yolg'iz o'g'lidim-da... Axiyri o'sha dard olib etdi. Hali yoshiydi!... – yigitning nigohi qaylarga tikilib, jim qoldi"[5.106].

Yigit onasining o'limida o'zini aybdor deb his qiladi. U ikki oylik ibodatini onasiga bag'ishlasa ham uni "vijdon" azobi tinch qo'ymaydi. Agar u Afg'on urushiga bormaganida onasi tirik bo'lishini o'ylab eziladi. Afg'on urushida bo'lgan yigitning endigina tinch, sokin hayotga o'rganayotganida onasidan ayrilishi unga hayotga bo'lgan yashash, muhabbat hissini so'ndiradi. U odamlarni, hattoki oilasini, farzandlarini yomon ko'ra boshlaydi. Yigit "aybdorlik" tuyg'isi ichida qoladi. Urush nafaqat urush o'chog'idagi balki, front ortidagi odamlarning hayotiga ham salbiy ta'sir o'tkazgan. Yolg'iz o'g'lini o'ylayverib, onaizor dard orttiradi va bu dard ortidan bu dunyoni tark etgani esa, yolg'iz o'g'il uchun katta musibat edi. Yigit o'zining ichki dunyosi bilan yashaydi, boshqa insonlar unga mehr bersa-da, u odamlarga mehr berolmaydi. Uning ko'zlariga faqat unga o'xshagan insonlargina qaray oladi.

"Xotinim menga xat yozibdi, deng. Buvim o'lib ancha cho'kib qoluvdim, shungami. "Buvingiz o'tgach, u kishini naqadar yaxshi ko'rishingizni sezdim,-debdi. – Endi o'sha mehringizni menga bering. Men bir umr onangizni o'rnini bosishga harakat qilaman, dilimda neki ezgulik bo'lsa sizga bag'ishlayman. Men sizni yaxshi ko'raman!" – deb yozibdi tag'in qo'shib qo'yibdi. "Bu gaplarni sizga yuzma-yuz turib aytgim ham keluvdi, lekin... Lekin sizning ko'zlarizga odam bolasi tik boqishi qiyin. Men ham botinolmadim..." O'z xotining xat yozsa, qiziq bo'larkan. O'qidimu to'lib ketdim"[5.106].

ILMIY AXBOROT

“Urush shunday jirkanchki, u insonning jismi, moddiyatinigina emas, ruhi, ma’naviyatini ham halokatga uchratadi”[6]. Chol va yigitning urushga, hayotga va insonlarga bo’lgan nafrati uning ko’zlarida namoyon bo’ladi. Bularning barcha-barchasi urushning ularning hayotiga solgan asoratidir. Ularning tili aytmagan iztiroblarni, azoblarni ko’zlari so’zlaydi. Ularning qalbi his qilayotgan dardlarni ko’zlari so’zlaydi. Hikoyada chol – umid ramzi bo’lib kelgan. Cholning hayoti yigitning hayotiga o’xshab ketadi. Yozuvchi bu orqali yigit agar shu holda davom etsa, uning hayoti ham cholning hayotiga o’xshab qolishini o’quvchiga anglatadi. Yigit cholni oppoq sochlarini, soqolini ko’rganda unda yashashga bo’lgan ishtiyoq uyg’onadi. Uning ham cholga o’xshab soqol qo’ygisi keladi. Yigit insonni tushunishni choldan o’rganadi.

“Biz odamlar bir-birimizni...hamma odamlar bir-birimizni ayashimiz kerak ekan. O’shanda bizga ko’p narsa kerak bo’lmaydi, shekilli. Siz hijolat bo’lmang, otaxon, men baribir mast bo’lmayman!... Men ham o’g’lingizga o’xshab mast bo’lolmayman, ota!...”[5.107]

“Bu davr adabiyotining asosiy g’oyasi insonni kamolotga emas, aksincha razolatga qarab ketayotganini ko’rsatadi”[7]. Yozuvchi chol obrazi orqali nafaqat yigitga, balki shu kabi insonlarga dunyoni, hayotni tushunishni, idrok etishni anglatgan. Insonlar uchun eng qadrli va qimmatli bo’lgan mehr tuyg’usini yo’qotayotgan yigitga ko’zgu tutgan. Yigit obrazi bilan esa urushning inson hayotiga solgan tashvishlari, urushga borgan odamlarning armonlari-yu, iztiroblari, vijdonini qiynab kelayotgan “xayol”lari haqida so’z boradi. Ulardagi ruhiy hastalik shu qadar tizimsizki, quvonchli voqealar ham aks ta’sir etishi mumkin. Hayotning shirin tomonlarini ham boricha, quvonch bilan qabul qilishga qiynaladilar.

“O’g’il qulluq bo’lsin, bolam!- buvimning ovozi o’lsalardan eshitildi.

O’rnimdan turdim. Ichimdan nimadir qalqib, ho’rligim keldi. Buvim shodlikdan deb o’yladi. Quchoqlab yuz ko’zimdan o’pdi, boshimni siladi. Men esa entikdim, xo’rsindim, bag’rim ko’pchib, yig’lab yubordim. Buvim boshimni qo’llari orasiga olib, yuzimga tikildi. Ana shunda hech kimga o’xshamagan “ko’ngli nozik” o’g’lini ko’yini tushundi shekilli. To’shakka o’tirib, boshimni tizzasiga qo’ydi. Yaxshiyam, onam bor...”[5.107]

Aksar holatlarda farzandli bo’lgan insonlar juda sevinadilar. Farzand bilan bog’liq yangi orzular, rejalar qilinadi. Yo’qotilgan avlod vakillari esa shu tuyg’ularni ham hamma kabi qabul qilolmaydi.

Yigit ham farzand ko’rsa-da barcha otalarga o’xshab quvonchga to’lmaydi, aksincha xo’rligi keladi. Buni quyidagicha tushunish mumkin: urushning dahshatlaridan qutulolmagan otaning farzandini qanday tarbiya qilishi yoki mehr ko’rsatishi haqida qayg’urishi, ikkinchi tomondan esa, o’zining ahvolini his qilib ho’rligi keladi.

Yigit o’zida bo’layotgan o’zgarishlarni sezsa-da, ongini chulg’ab olgan “tush”lardan qutulolmaydi. U boshqalarga odam o’ldirmaganini tushuntirmoqchi bo’ladi. Hayotdagi eng yomon narsa yaqinlaringni tushunmasligi, sen his qilgan dardlarni his qilmasligi, sezmasligidir. Yigitni qiynab kelayotgan urush og’riqlari nafaqat o’ziga, balki yaqinlariga ham o’z ta’sirini o’tkazmay qolmaydi.

“-Yaxshi uxlaysan, bolam ozgina ichvol,-dedi.

Hayratda qotib qoldim.

-Bu nima qilganiyiz buvi!-O’zimni qo’lga olishim kerakligini bilib tursam-da, sir boy bergim kelmasdi. –Endi siz minan o’tirib araq ichishim qoluvdi!..

Buvim o’zgarganimni, ahvolimdan hijolat bo’la boshlaganimni ham sezmay nuqul ichishga undaydi:

-Ozgina ichgin, bolam! O-o-zgina!..

-Terrorist qivoring-ey, Terroristlarni mashnaqa qib tarbiyalashgan”[5.108].

O’g’liga araq ichishni taklif qilish o’zbek onalariga xos bo’lmasa-da, lekin o’g’lining halovatini o’ylab, uni urush azoblaridan qutqarish uchun, uni tinch uxlashi uchun ona og’liga araq ichishni iltimos qiladi. Onaning o’g’lim emas bolam deb aytishi bir tomondan erkalashni bildirsa, ikkinchi tomondan uning azoblanganini ko’rib achinayotganini bildiradi. O’z o’g’lini dard, alam, hasrat chekayotganini ko’rgan ona bu qiynoqlardan tezroq xalos bo’lishini xohlaydi.

M.Qo’shjonov “San’atkor va hayot” nomli tadqiqotida “shunday asarlar borki, hayotiy voqeligi, g’oyaviy mohiyati jihatidan bir-biriga o’xshash, ammo shu voqealar talqinida va va g’oyaviy maqsadlarni poetik tahlilida har bir adib o’z betakror estetik yo’lidan boradi”, - deya

ta'kidlaydi. Nabi Jaloliddin mahorat bobida oz xususiyatlarini nfmoyon etadi. Uning "Ayriliq" hikoyasi afg'on urushi natijasida qalbi muzga aylanib qolgan Kamoliddin haqida bo'lib, bu hikoya orqali yozuvchi onaning o'limi sujeti orqali umuminsoniy fojeani ko'rsatib beradi. Kamoliddinning onasi vafot etganiga to'rt kun bo'lsa ham uning hamon ko'zlariga yosh kelmas, yuragidagi tosh erimasdi. Urush tufayli uning diydasi qotib qolgan edi. Bu hikoyaning boshqa hikoyalardan farqi shundaki, urush qoldirgan asoratlarni qahramonning onasini o'lganida yig'lamagani, yosh bo'lishiga qaramasdan Kamoliddinning sochi "chiroyli" oqarganidanidan ko'rishimiz mumkin.

"Janoza kuni yig'lashni istadi ham, opasi va singlisining "isnodlarga o'ldirmagin", degan gapidan keyin, rosti, o'ziyam uyalib ketdi, juda-juda yig'lagisi keldi. Harchand urinmasin, yig'lolmadi. Qani endi bu qaqragan ko'zlariga bir tomchi yosh kelsa! Xuddi o'chakishgandek ular ham "oyoq tirab" turib olishdi, kipriklari qovjiragancha qolaverdi. Odamlarning g'o'ng'ir-g'ong'ir g'iybatlariniyam eshitmaganga soldi o'zini. Onajonisini hatto qabrga ham bir tomchi ko'z yosh to'kmay tashlab keldi"[5.108].

Kamoliddin "qardosh" millatga qarshi jang qilayotganda bir necha bor onasi uchun tirik qolgandi, eng so'ngi daqiqalarda ham onasini farzand dog'ida yig'lamasligi, siqilib kasal bo'lib qolmasligi uchun yashab qolishga harakat qilgan edi. Urushdan qaytib kelgach, onasi o'g'lini juda-juda ehtiyot qilardi, keliniga erini aytganini qilishni, uni ehtiyot qilishini uqtirardi. O'g'lini urushda sal injiqroq bo'lib qolgani uchun opasi va singlisi bolalarini olib kelganda nevaralarini ham tergap turadi.

"Ho'y sekinroq gapir, Kamoliddinni boshi og'rib qoladi!

-Borlaring, to'polon qilmay, tog'alaring uyg'onib ketadi-ey!

Bunda opa-singillari zo'raki aralashib qolishardi:

-Voy-ey, nima Kamoliddin bolangizu, biz bolangizmasmi, buvijon?"[5.108]

Onasidan ayrilgandan keyin Kamoliddin uyi huvillab qolganini sezadi. Unga har bir voqea-xotini bolalarini ko'chaga jo'natishi, so'riga qaraganda onasini kirchimol qora toshakda sabzi-piyoz yoki guruchning toshini terayotgani esiga tushardi. U hovlidan onasining nigohini izlardi, hovlining har bir sahniga qaraganida esa huvillash yanada kuchayadi. U onasini yo'qotganini endi his etgan edi. Oldinlari oddiy kinolarni ko'rib, ta'sirlanib yig'laydigan o'g'il onasini o'lganiga yig'lamagani, uning uchun o'lim oddiy bir narsaga aylanib qolgani, yuragidagi mehrning o'rniga qahrning o'rnashib qolganligi urushning insonning hayotiga o'tkazgan ta'siridir.

XULOSA

Nabi Jaloliddin ushbu voqea orqali butun insoniyatga tegishli umuminsoniy fojeani ochib bergan. U hikoyalarda ota mehrini ko'rmagan farzandlar, farzandning tashvishida yashagan onalar, ongida urushning asoratlari davom etyotgan yigitlar obrazini mahorat bilan har tomonlama detallar, peyzajlar bilan asoslab bergan. "Urush", "Urushning davomi" hikoyalardagi yigitlarning ismi yo'qligi ham umumiylikni ta'minlaydi. Ya'ni bu yigitlar urushda ishtirok etgan barcha yigitlar timsolidir. Hikoya qahramonlarining barchasi sofdil, beozor kimsalar, urush esa shunday insonlarni ruhiy hasta – yo'qotilgan avlodga aylantiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yo%CA%BBqotilgan_avlod
2. Hoshimov, O'tkir. (2018) Daftar hoshiyasidagi bitiklar. –Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. <https://zenodo.org/records/6528285>; <https://cyberleninka.ru/article/n/qo-chqor-norqobil-asarlarida-urush-mavzusi>; <https://zenodo.org/records/6537150>; https://zenodo-org.translate.google.com/records/6528295?_x_tr_sl=uz&_x_tr_tl=ru&_x_tr_hl=ru&_x_tr_pto; <https://oriens.uz/journal/article/oydin-hojiyeva-sheriyatida-urush-mavzusi>
4. Чориева Ш.Ш. (2023) Инглиз "йўқотилган авлод" адабиётида аёллар образининг бадиий ўзига хослиги (Ричард Одингтон ва Вера Бриттен асарлари мисолида).- PhD диссертацияси автореферати. -Т. <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/citationstylelanguage/get/associacao-brasileira-de-normas-tecnicas?SubmissionId=1609&publicationId=1609>. Холматов О. (2021) XX аср Фарб прозасида "йўқотилган авлод" муаммоси. ФарДУ Илмий хабарлар– Научный вестник ФерГУ. Журнал. 1-сон.
5. Jaloliddin, Nabi. (2021) Urushning davomi. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi.
6. <https://kun.uz/news/2023/06/28/uch-ogayni-yoqotilgan-avlod-tuygulari-aks-etgan-asar>
7. Choriyeva Sh.Sh. (2023) Ingliz "yo'qotilgan avlod" adabiyotida ayollar obrazining baadiy o'ziga xosligi (Richard Oldington va Vera Britten asarlari misolida). Fil.fan.bo'yicha falsafa doktori avtoreferati.